



KONSEPTUAL YONDASHUV ASOSIDA TERMIN TIZIMINI SHAKLLANTIRISH

Mirxanova Gulandom Rustamovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)
guli89mirxan@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15243769>

Annotatsiya. Zamonaviy terminologiya fani doirasida termin tizimlarini shakllantirish va ularni ilmiy-nazariy jihatdan asoslash jarayoni tobora murakkablashib bormoqda. Maqolada terminlarga konseptual yondashuvning mohiyati, uning lingvistik va kognitiv mezonlari hamda ilmiy izlanishlardagi o'rni tahlil qilinadi. Konseptual yondashuv – til birliklarining semantik va strukturaviy xususiyatlarini aniqlashda asosiy metodologik vosita bo'lib, termin tizimlarini yaxlit va izchil shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Shunga ko'ra, maqolada konseptual yondashuv doirasida terminlarning shakllanish qonuniyatlari, ularning semantik paradigmatlari masalalari o'rganiladi, terminlarning konseptual modellar asosida tahlil qilinishi, ularning pragmatik va funksional jihatlari, shuningdek, fanlararo integratsiyadagi roli yoritiladi. Ayniqsa, kognitiv lingvistika, terminologiya va konseptual semantika o'zaro bog'liq holda ko'rib chiqilib, yangi termin tizimlarini shakllantirish jarayonida konseptual asoslarning zarurligi asoslanadi, maqolada lingvistik makon va madaniy kontekst faktorlari hisobga olingan holda terminlarning milliy va universal xususiyatlari ham tahlil qilinadi. Natijada, terminlarni shakllantirishda konseptual yondashuvdan foydalanish ilmiy-texnik, huquqiy va gumanitar sohalarda terminlarning aniqligini oshirish, ularning umumiy tizimga muvofiqligini ta'minlash imkonini berishi ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: termin, konsept, kognitiv yondashuv, konseptual yondashuv, semantik element.

Dunyo tilshunosligida terminologiya sohasi o'zining muntazam taraqqiyotda, kundan kunga fan xulosalari boyitilgani bilan kengayib bormoqda. Qolaversa, yangi fan tarmoqlari, faoliyat sohalari yuzaga kelmoqda. Shu sababdan terminlarni denotativ guruh sifatida jonli, o'zgaruvchan ochiq tizim sifatida xarakterlash maqsadga muvofiq. Chunki terminlar inson faoliyatining har qanday jabhasini fan sifatida baholash, ilmiy yondashuv belgisidir [1:87]. Bunda diniy terminlar dinga ilmiy tizimiylik bersa, san'at terminlari ham sohani fan miqyosiga ko'taradi. Shu jihatdan turli jabhalar, inson faoliyatining turli sohalarida uchraydigan terminlar uchun birlashtiruvchi arxisema sifatida “ilm-fan” istilohini olish muhim.

Terminlar qo'llanish ko'lamiga ko'ra universal, unikal va bir shaxs tomonidan yaratilgan tor doirada xoslangan turlarga bo'linadi. Agar tarkibdagi elementlar soniga qarasa, oxirgi guruh eng kichik tarkib bilan quyi pog'onada bo'lishi lozim. Biroq aynan kognitiv-konseptual yondashuvda mana shu tor doira elementlar pirovard tadqiq obyektiga aylanadi [4:195-197]. Chunki bir shaxs tomonidan yaratilgan tor doirada xoslangan terminlarda subyektiv iz yaqqol, bu terminlar hali fanda o'z o'rniga ega bo'lmagan – ya'ni obyektivlashmagan. Shunday ekan, bir shaxs



tomonidan yaratilgan tor doirada xoslangan terminlar kognitiv tadqiqda yaxshi material bo‘la oladi. Kognitiv yondashuv terminlar tavsifiga konseptuallikni talab qiladi, ya’ni bunda termin konsept sifatida izohlanishi kerak. Har bir element kognitiv strukturasi, tizimdagi o‘rni yaqqol ko‘rsatib berilishi shart.

Agar izlanishlarda terminlarga oid kognitiv yondashuv yuqori o‘rinda bo‘lsa, masala faqatgina termin funksiyasi va semantikasini o‘rganish bilan cheklanmaydi [7:116-118]. Zotan, konseptual tavsif terminning professional faoliyatdagi, ilmiy ongda, bilimlar tizimidagi o‘rnini ham belgilashga qaratiladi. Bunda termin tavsifiga freym, konsept va dunyoning lisoniy manzarasi prizmasidan qaraladi.

Ma’lumki, ilm-fan terminlari barcha tillar uchun umumiy semantik element hisoblanadi, terminlar muayyan tildan o‘zlashtirilishi [masalan: *teleradiokompaniya, marketing, devalvatsiya, deputat, mexanizm, menejment*] yoki o‘zbek tiliga mazmunan moslashtirilishi, tarjima qilinishi mumkin [*direktor – rahbar, council – elchi*]. Shu o‘rinda bir savol tug‘iladi? Terminlar shaklan turli tillarda farqlansa-da, mazmunan bir yaxlit bo‘ladi, ya’ni barcha tillarda bir xil terminologik ma’no mavjud deyish mumkinmi? Bu savolga javob shakllantirishda konseptual yondashuv ham qo‘l keladi. Quyida terminlarning qo‘llanish doirasiga ko‘ra sohalarda qo‘llanishini ko‘rib chiqamiz:

«Epos» termini qo‘llanish doirasi gumanitar fan sohalari bilan cheklanadi:

EPOS	
Etimologiya:	Termin qadimgi yunon tilidagi έπος [hikoya] shaklidan hech qanday transliteratsiyasiz rus tili vositasida o‘zbek tiliga o‘zlashgan.
Dastlabki izoh:	Hikoya, hijoya aytish ma’nolariga ega adabiy janr yoki nutq shakli.
Dastlabki qo‘llanishi:	Qadimgi yunon badiiy asarlarining janr nomi sifatida qo‘llangan.
Hozirgi ma’nosi	Drama va lirika kabi dabiylar shakllardan biri
Terminning qo‘llanish doirasi	
Adabiyot	Adabiyotshunoslikda epos janr turi bo‘lib, uning asosiy vazifasi qahramonlar boshiga tushgan voqea-hodisalarni hikoya qilishdir. Epos xususiyatlari: Obyektivlik – muallif voqealarni tashqi kuzatuvchi sifatida yetkazadi. Shakllangan syujet – bu qahramonlarning harakatlari, taqdiri, tarixiy jarayonlar haqidagi hikoya. Personajlar ma’lum bir makon va vaqtda harakat qiladi. Epos janrlari: qahramonlik eposi – ertak va afsonalar; roman, qissa, hikoya; tarixiy epos – xalq xronikasi.
Folklor va madaniyatshunoslik	Xalq og‘zaki ijodida eposlar avloddan avlodga o‘tib kelayotgan og‘zaki ijod namunalari bo‘lib, quyidagilarni aks ettiradi: Xalqning kollektiv ongi [g‘oyalar, qadriyatlar, tarixiy xotira]. Qahramonlik obrazlari [qahramonlar, podshohlar, jangchilar]. Simvolizm va mifologiya [fantastik elementlarning boyligi]. Misol: Odissey haqidagi qadimgi yunon miflari, turkiy xalqlar dostonlari, Skandinaviya Eddalari, o‘rta asr ritsarlik dostonlari.

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



Falsafa	Falsafada epos insoniyat tarixi va taqdirini anglash shakli sifatida qaraladi. Falsafaga ko‘ra eposlar quyidagilarni namoyon qiladi: Borliqning global masalalari [taqdir, or-nomus, burch, yaxshilik va yovuzlik o‘rtasidagi kurash]. Afsonaviy va tarixiy ong [jamiyatning buyuk voqealar prizmasidan rivojlanishi].
----------------	---

Yuqoridagi tavsiflarni umumlashtirib, eposni afsona, tarix va adabiyot kesimidagi unikal madaniy hodisa deyishimiz mumkin. Epos xalqning jamoaviy tarixiy xotirasini shakllantiradi, xalq tarixidagi muhim hodisalar, qahramonlar hayotini tasviriy elementlar, afsonalar qobig‘iga o‘rab bayon qiladi. Bu kabi batafsil izohlar, tizimli yondashuv natijasida aniq konseptual tavsiflar shakllanadi. Shu bilan birga, o‘zbek tilida terminlar transliteratsiyasi mexanizmlari yaqqollashib, qonuniyatlar yuzaga chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Arntz R., Picht H., Mayer Felix. Einführung in die Terminologiearbeit. – Olms: Hildesheim, 2002.
2. Бегматов Э. Собственный пласт лексики современного узбекского литературного языка – Т.: В надзаг.: АН УзССР, 1988. – 140 С.
3. Галеева, А. Языковая реформа Ататюрка и её феноменальный успех / А. Р. Галеева. – Текст: непосредственный // Молодой ученый. – 2021. – № 1 [343]. – С. 121-123.
4. Гринев-Гриневич С. Терминоведение – М.: Академия, 2008. – С. 304.
5. Rustamovna, M. G. [2024]. Linguistic Form of Terms in Explanatory Dictionaries of the Uzbek Language. *Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education* [2994-9521], 2[6], 589-591.
6. Mirxanova, G. R. [2023]. SYNTACTIC ANALYSIS OF WORKS OF ART IN ELEMENTARY SCHOOL TEXTBOOKS: METHODS AND APPLICATIONS.
7. Харлицкий С. Информационная структура термина: автореф. дисс. кан. фил. наук. М., 2003. – С. 264